## Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

| | |
|---|---|
| **Tashkilot nomi:** | Maktabgacha ta’lim vazirligi |
| **Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sullar):** | Aminov Farrux Farxodovich<br>Boshqarma boshlig’i o’rinbosari v.v.b. |
| **Hisobot davri:** | Yillik hisobot |
| **Hisobot tayyorlangan sana:** | 20.01.2022 yil |

| T/r | Tadbirlar guruhining nomlari | Tadbirlarning nomlari | Bajarish muddati | Ma'sul ijrochilar | Ijro to‘g‘risida belgi | Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat | Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi **PQ-5144-son** qaroriga asosan Chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash | 10.10.2021 | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Maktabgacha ta’lim vazirligi | Ijrosi ta’minlangan | | **Bajarilgan** |
| 2 | | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining | Bir oy | Adliya vazirligi, Xalq ta'limi | Ijrosi ta’minlangan | | **Bajarilgan** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | PF-6257-son 1-ilova 43-band ijrosi | “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni 1-ilova 43-band ijrosini ta'minlash | | vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Maktabgacha ta’lim vazirligi | | | |
| 3 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori ijrosi | 1-band. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilsin | 01.09.2021 | Maktabgacha ta’lim vazirligi | Ijrosi ta’minlangan | | **Bajarilgan** |
| 4 | | 3-band. 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati | 01.10.2021 | Maktabgacha ta’lim vazirligi | Ijrosi ta’minlangan | | **Bajarilgan** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yo'lga qo'yilsin | | | | | |
| 5 | | 4-band. Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ularni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi | doimiy | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Maktabgacha ta'lim vazirligi | Ijrosi ta'minlangan | | **Bajarilgan** |
| 6 | | 9 a)-band. 2021-yil 1-avgustdan boshlab davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida davlat xaridlari sohasida o'tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini majburiy tarzda ochiq e'lon qilish amaliyoti joriy etilsin | 01.08.2021 | Maktabgacha ta'lim vazirligi | Ijrosi ta'minlangan | | **Bajarilgan** |

| **T/r** | **Tadbir** | **Natijalari** |
|---|---|---|
| | **I. Siyosatlar va proseduralar** | |
| 1. | Ichki hujjatlarni moslashtirish | PQ-5144-son qaroriga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirish bo'yicha 20 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.<br><br>O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining "Jinoyatga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi taqdimnomasiga asosan 18 ta banddan iborat chora-tadbirlar belgilab olindi.<br><br>Maktabgacha ta'lim vazirining 166-son buyrug'iga asosan Maktabgacha ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha 7 bobdan iborat |

| | | |
|---|---|---|
| | | yo’l xaritasi ishlab chiqildi<br><br>Tizimda korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida 2021 yilning 9-iyulida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan “Hamkorlik memorandumi” imzolandi. |
| 2. | Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish. | Maktabgacha ta’lim vazirining 2021 yil 2 noyabrdagi 209-sonli buyrug’iga asosan “Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” tasdiqlangan bo’lib, 2022 yilda tizimdagi xavf-xatarlarni baholash rejalashtirilgan.<br>Bugungi kunga qadar aniqlangan xavflarni baholash maqsadida chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilgan. |
| **II. Shaxsiy namuna** | | |
| 3. | MT tizimi rahbari va uning o‘rinbosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi). | 2021 yil 26-noyabr kuni Maktabgacha ta'lim vazirligida 30 dan ortiq OAV xodimlari bilan "9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilib ochiq muloqot o'tkazildi. |
| 4. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ichki kommunikasiyani tarqatish (Tashkilot rahbari va uning o‘rinbosarlarining nomidan). | Tizimdagi barcha xodimlar ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirib chiqilgan |
| 5. | MT tizimi rahbari va uning o‘rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari. | 2021-yil 1-noyabrda AOKAda Maktabgacha ta’lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig‘i o’rinbosari v.v.b. Farrux Aminov ishtirokida “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ishlar” va “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar” bo’yicha brifing o‘tkazilgan. |
| **III. Xavf-xatarlarni baholash** | | |
| 6. | MT tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha har yillik baholash o‘tkazish | Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 2 noyabrdagi 209-sonli buyrug'iga asosan “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” tasdiqlangan bo'lib, 2022 yilda tizimdagi xavf-xatarlarni baholash rejalashtirilgan.<br><br>Bugungi kunga qadar aniqlangan xavflarni baholash maqsadida chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilgan. |
| 7. | Hisobot davri uchun Tashkilotda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o‘rta, past). | Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o‘tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o‘zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha takliflar.<br><br>MT tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi. |

| | | |
|---|---|---|
| 8. | Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar | Tizimda korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan |
| 9. | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni | Qoldiq tavakkal yuqori bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko‘rsatiladi |
| 10. | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o‘rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o‘rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko‘rsatish zarur. |
| **IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar** | | |
| 11. | MT tizimida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar | Tizimdagi barcha xodimlardan manfaatlar deklaratsiyasi to’ldirtirilgan hamda muntazam ravishda tekshirib boriladi. |
| 12. | Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish. | Vazirlik markazir apparati xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyasini to’liq to’ldirib berilgan. |
| 13. | Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni. | 2021 yilning noyabr oyida “Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha YO‘RIQNOMA” qabul qilingan bo’lib, ishga kirayotgan xodimlar mazkur yo’riqnomaga asosan o’rganilmoqda |
| 14. | Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni | 2021 yilning noyabr oyida “Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid YO‘RIQNOMA” qabul qilingan bo’lib, kontragentlar mazkur yo’riqnomaga asosan o’rganilmoqda |
| 15. | Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar | 2021-yil 25-sentyabrda "Yoshlar", "MY5" va bir nechta telekanallar ishtirokida Maktabgacha ta'lim vazirligida Komplayens nazorat tashkil qilinganligi bo'yicha bo'lim mutaxassislar ishtirokida suhbutlar o'tkazildi.<br><br>2021-yil 1-noyabrda AOKAda Maktabgacha ta’lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig‘i o’rinbosari v.v.b. Farrux Aminov ishtirokida “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ishlar” va “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar” bo’yicha brifing o‘tkazilgan. |
| **V. Ta'lim va kommunikasiya** | | |
| 16. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish:<br><br>barcha xodimlar uchun;<br><br>korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng | Maktabgacha ta'lim vazirligining 2020 yi 24 iyuldagi 109-sonli bo'yrug'iga asosan institutda tashkil etilgan “Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida masofadan o'qitish (Onlayn) tizimi orqali qisqa muddatli o'quv kurslarida jami Respublika bo'yicha 4944 nafar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari o'qigan. |

| | | |
|---|---|---|
| | ko‘proq moylilik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun. | |
| 17. | MT tizimiga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish. | Tizimga yangi qabul qilinayotgan barcha xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo’nalishida qabul qilingan 14 ta ichki hujjatlar bilan tanishtirilishi yo’lga qo’yilgan. |
| 18. | Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar | Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Farg'ona hamda Jizzax viloyatlarida "Maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish mexanizmlari to'g'risida" seminarlar o'tkazildi. |
| 19. | Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma'sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari. | Rus va o‘zbek tillarida “Sizning qonuniy huquqlaringiz buzilyaptimi? Korrupsion holatlarga duch keldingizmi” sarlavhasi ostida flaerlar yaratilib, Respublikadagi har bir davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy va davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan ta'lim tashkilotlari, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlarining ko‘rinadigan kiraverish qismiga osib qo‘yilishi ta'minlandi. Telegramm-botga kelib tushayotgan tezkor ma'lumotlar, xabarlar, fuqarolarning murojaatlari tahlil qilinib, tizimda ro‘y berayotgan korrupsion holatlarga qarshi tizimli kurash olib borilmoqda. |
| 20. | Xodimlarnining ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari. | “Sizning qonuniy huquqlaringiz buzilyaptimi? Korrupsion holatlarga duch keldingizmi” sarlavhasi ostida flaerlar yaratildi |
| 21. | Fuqarolik jamiyati va bo‘linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish | 2021 yil 26-noyabr kuni Maktabgacha ta'lim vazirligida 30 dan ortiq OAV xodimlari bilan "9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilib ochiq muloqot o'tkazildi |
| **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar. Ta'sir choralari** | | |
| 22. | Xatti-harakatlar, shu jumladan, potensial xatti-harakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni | 2021 yil davomida jami kelib tushgan murojaatlar soni 429 tani tashkil etgan bo'lib, shundan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushganlari 158 tani, idora va tashkilotlardan kelgan xat-xujjatlar 271 tani tashkil qilgan.<br><br>Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan 158 ta murojaatdan 80 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiorqali, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali, 54 tasi elektron pochta, yozma, og'zaki va turli tashkilotlar orqati, 6 tasi ishonch telefoni orqali hamda 15 tasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish bo'shqarmasida tashkil etilgan telegram kanali orqali kelib tushgan. |
| 23. | Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan;<br><br>Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy- | Huquqni muhofaza qiluvchi idoralari bilan hamkorlikda Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 12-sonli DMTT direktori va Namangan viloyati, Uychi tumani MTB hisobchisi pora bilan qo'lga olingan.<br><br>Kelib tushayotgan tezkor ma'lumotlarga asosan 8 ta holatda maktabgacha ta'lim |

| | | |
|---|---|---|
| | huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan;<br><br>Bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida);<br><br>Aybdorlar aniqlangan holatlar soni. | bo'lim va tashkilotlarida o'rganishlar o'tkazilib, moliyaviy kamchiliklarga, ta'magirlik hamda firibgarlik holatlari bo'yicha to'plangan xujjatlar huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yuborilgan. |
| 24. | Qabul qilingan ta'sir choralari. | Korrupsion holatlarga aloqadorligi uchun 9 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi.<br><br>Qo'l ostidagi xodimlar faoliyati ustidan yetarli nazorat o'rnatmaganligi sababli 3 nafar rahbar xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi.<br><br>Noqonuniy xatti-xarakatlarni amalga oshirgan 6 nafar xodimlarga mehnat qonunchiligiga asosan “xayfsan” intizomiy jazo chorasi ko'llanildi. |
| **VII. Monitoring va nazorat** | | |
| 25. | Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o‘tkazilganligi. | Fuqarolarning murojaatlari va tezkor xabarlarga asosan Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo va Andijon viloyatlarida o'rganish o'tkazilgan. |
| 26. | Bo‘linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo‘llanilgan ta'sir choralari? | To'plangan xujjatlar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan. |

**Xulosalar:** Hududiy va tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko‘rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va korreksiyalovchi tadbirlar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko‘rsatish zarur.

## Maktabgacha ta’lim vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 2021 yil uchun yillik UMUMIY HISOBOT

**I. MT tizimining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining yangilangan tuzilmasida (2021 yil 16 fevraldagi 16-sonli buyruqqa asosan) 3 nafar xodimdan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish bo'limi joriy yilning aprelь oyidan ish boshladi.

Tizimda korrupsion holatlarga kurashni samarali tashkil etish maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 12 iyulьdagi 131 sonli buyrug'iga asosan bo'lim nomi Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish bo'limiga o'zgartirildi hamda barcha hududiy maktabgacha ta'lim boshqarmalarida **1 shtatdan bosh mutaxassislar ajratildi.** Bugungi kunda Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrida mazkur lavozimlar vakant bo'lib, qolgan shtatlarga xodimlar ishga qabul qilingan.

Vazirlikning 2021 yil 8 sentyabrdagi 170-sonli buyrug'iga asosan bo'lim nomi “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi”ga o'zgartirildi hamda shtat soni 5 taga yetkazildi.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

**Мактабгача таълим тизимида коррупциянинг олдини олиш мақсадида ишлаб чиқилган буйруқлар:**

- Maktabgacha ta'lim vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to'g'risida;
- Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlari to'g'risida;
- Maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish haqida;
- Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida;
- Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti”;

- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo‘riqnoma”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament”;
- “Maktabgacha ta'lim vazirligining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom”.

PQ-5144-son qaroriga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirish bo‘yicha 20 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining “Jinoyatga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi taqdimnomasiga asosan 18 ta banddan iborat chora-tadbirlar belgilab olindi.

Maktabgacha ta’lim vazirining 166-son buyrug’iga asosan Maktabgacha ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo’yicha 7 bobdan iborat yo’l xaritasi ishlab chiqildi

Tizimda korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida 2021 yilning 9-iyulida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan “Hamkorlik memorandumi” imzolandi.

## III. Xavf-xatarlarni baholash

Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 2 noyabrdagi 209-sonli buyrug'iga asosan “Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” tasdiqlangan bo'lib, 2022 yilda tizimdagi xavf-xatarlarni baholash rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar aniqlangan xavflarni baholash maqsadida chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilgan.

**IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

2021 yil 26-noyabr kuni Maktabgacha ta'lim vazirligida 30 dan ortiq OAV xodimlari bilan "9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilib ochiq muloqot o'tkazildi

2021-yil 25-sentyabrda "Yoshlar", "MY5" va birnechta telekanallar ishtirokida Maktabgacha ta'lim vazirligida Komplayens nazorat tashkil qilinganligi bo'yicha bo'lim mutaxassislar ishtirokida suhbutlar o'tkazildi.

2021-yil 1-noyabrda AOKAda Maktabgacha ta’lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig‘i o’rinbosari v.v.b. Farrux Aminov ishtirokida “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ishlar” va “Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar” bo’yicha brifing o‘tkazilgan.

**V. Ta'lim va kommunikasiya**

Maktabgacha ta'lim vazirliginining 2020 yi 24 iyuldagi 109-sonli bo'yrug'iga asosan institutda tashkil etilgan “Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida masofadan o'qitish (Onlayn) tizimi orqali qisqa muddatli o'quv kurslarida jami Respublika bo'yicha 4944 nafar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari o'qigan.

Rus va o‘zbek tillarida “Sizning qonuniy huquqlaringiz buzilyaptimi? Korrupsion holatlarga duch keldingizmi” sarlavhasi ostida flaerlar yaratilib, Respublikadagi har bir davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy va davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan ta'lim tashkilotlari, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlarining ko‘rinadigan kiraverish qismiga osib qo‘yilishi ta'minlandi. Telegramm-botga kelib tushayotgan tezkor ma'lumotlar, xabarlar, fuqarolarning murojaatlari tahlil qilinib, tizimda ro‘y berayotgan korrupsion holatlarga qarshi tizimli kurash olib borilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Farg'ona hamda Jizzax viloyatlarida "Maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish mexanizmlari to'g'risida" seminarlar o'tkazildi.

**VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar**

2021 yil davomida jami kelib tushgan murojaatlar soni 489 tani tashkil etgan bo'lib, shundan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushganlari 218 tani, idora va tashkilotlardan kelgan xat-xujjatlar 271 tani tashkil qilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan 218 ta murojaatdan 80 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiorqali, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali, 54 tasi elektron pochta, yozma, og'zaki va turli tashkilotlar orqati, 6 tasi ishonch telefoni orqali hamda 75 tasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish bo'shqarmasida tashkil etilgan telegram kanali orqali kelib tushgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralari bilan hamkorlikda Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 12-sonli DMTT direktori va Namangan viloyati, Uychi tumani MTB hisobchisi pora bilan qo'lga olingan.

Kelib tushayotgan tezkor ma'lumotlarga asosan 8 ta holatda maktabgacha ta'lim bo'lim va tashkilotlarida o'rganishlar o'tkazilib, moliyaviy kamchiliklarga, ta'magirlik hamda firibgarlik holatlari bo'yicha to'plangan xujjatlar huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Korrupsion holatlarga aloqadorligi uchun 9 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi.

Qo'l ostidagi xodimlar faoliyati ustidan yetarli nazorat o'rnatmaganligi sababli 3 nafar rahbar xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi.

Noqonuniy xatti-xarakatlarni amalga oshirgan 6 nafar xodimlarga mehnat qonunchiligiga asosan “xayfsan” intizomiy jazo chorasi ko'llanildi.

## VII. Monitoring va nazorat

2021 yil davomida jami kelib tushgan murojaatlar soni 489 tani tashkil etgan bo'lib, shundan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushganlari 218 tani, idora va tashkilotlardan kelgan xat-xujjatlar 271 tani tashkil qilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan 218 ta murojaatdan 80 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiorqali, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali, 54 tasi elektron pochta, yozma, og'zaki va turli tashkilotlar orqati, 6 tasi ishonch telefoni orqali hamda 75 tasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish bo'shqarmasida tashkil etilgan telegram kanali orqali kelib tushgan.

Fuqaro D.Pirmatovaning Jizzax viloyati, Jizzax shahar 37-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori D.Mustafakulovaning noqonuniy xatti-xarakatlaridan norozi bo'lim qilgan murojaatiga asosan o'rganish o'tkazilib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 1-iyulda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Fuqaro B.Abdushukurovning Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri B.Ibotov va bo'lim uslubchisi R.Maxmudovlarning ta'magirlik xatti-xarakatlaridan norozi bo'lim qilgan murojaatiga asosan o'rganish o'tkazilib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Fuqaro G.G'ofurovaning Jizzax viloyati Maktabgacha ta'lim boshqarmasi bosh yuriskonsulti B.Taylanovning ta'magirlik xatti-xarakatlaridan norozi bo'lim qilgan murojaatiga asosan o'rganish o'tkazilib, to'plangan xujjatlar 2021-yil

27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Fuqaro, Samarqand viloyati, Toyloq tumani 14-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti sobiq direktori K.Mallayevaning faoliyati o'rganilib, bir qator moliyaviy kamchiliklar va ta'magirlik holatlari aniqlanib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Farg'ona viloyati, Toshloq tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri N.Iminova va bo'lim xodimlarining faoliyati o'rganilib, ta'magirlik holatlari aniqlanib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 30-iyunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Fuqaro, Farg'ona viloyati, Quva tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi yuriskonsulti B.Abdujabborovning murojaatiga asosan tumandagi ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati o'rganilib, tumanning 17 va 39-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oziq-ovqat mahsulotlari talon-taroj qilinayotgani aniqlanib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Fuqaro, Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanida istiqomat qiluvchi Sh.Qurbonovaning Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri Z.Jo'rayev va bo'lim xodimlarining korrupsion xatti-xarakatlaridan norozi bo'lib qilgan murojaatiga asosan o'rganish o'tkazilganda murojaatda keltirilgan vajlar o'z tasdig'ini topmadi.

Olingan tezkor ma'lumotga asosan, Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi 4-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida tadbirkor M.Imomov o'zboshimchalik bilan mahalliy xokimlik qarorisiz va Maktabgacha ta'lim vazirligining ruxsatisiz yangi noqonuniy bino qurayotganligi aniqlanib, to'plangan xujjatlar 2021-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan.

Hududliy komplaens-nazorat bo’limi mutaxassislari tomonidan:

- Har haftaning juma kuni “korrupsiyasiz kun” deb e’lon qilindi hamda seminarlar o’tilmoqda;
- Manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish jarayonida korrupsiya holatlari va majburiy mehnatga jalb qilish holatlarimng oldini olish nazorat qilinmoqda;
- DXSH asosida tashkil etilgan NMTTlar faoliyati monitoring qilib borilmoqda.

**VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

Yangiyo‘l shahridagi 12-DMTT sobiq direktori M.O. fuqaro U.S.ni tarbiyachi yordamchisi lavozimiga ishga qabul qilish uchun undan 100 AQSh dollarini ta'magirlik yo‘li bilan talab qilib, pullarni olayotgan vaqtda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar bo‘limi va Yangiyo‘l shahar IIB xodimlari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbir natijasida, daliliy ashyo bilan qo‘lga olinib, JKning 210-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

2. Namangan viloyati Uychi tumani Maktabgacha ta'lim bo‘limi sobiq mas'ul xodimi A.E. ta'minotchi ta'minotchi korxona rahbari A.J.dan yetkazib berilgan 359 mln. so‘mlik mahsulotning 10% ini ya'ni 14,8 mln. so‘m va 2000 AQSh dollari miqdoridagi pullarni olayotgan vaqtda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Namangan viloyati boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbir natijasida, daliliy ashyo bilan ushlanib, JKning 214-moddasi 3-qismi “g” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

**X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda Maktabgacha ta'lim tizimi

xodimlarini korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish yo'nalishida bosqichma-bosqich o'qilish va sertifikatlar berish rejalashtirildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi**
**HISOBOT**

| T/r | Tadbirlar nomi | Bajarish muddati | Amalga oshirilgan choralar |
|---|---|---|---|
| 1 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5144-son qaroriga asosan Chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish | Bir oy | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlandi |
| 2 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni 1-ilova 43-band ijrosi | Bir oy | “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari” tasdiqlandi |
| 3 | PQ-5177-son Qarori 1-band. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilsin | 2021-yil sentabr | Maktabgacha ta'lim tizimida ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etildi |
| | PQ-5177-son Qarori 3-band.2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan | | O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 1-fevraldagi “Maktabgacha ta'lim vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan vazirlik markaziy apparatida komplaens-nazorat tizimi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilsin | 2021-yil oktabr | yaratildi, ya'ni "Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish bo'limi" tashkil etildi.<br>Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 8-sentabrdagi 170-sonli "Maktabgacha ta'lim vazirligida Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'iga asosan mazkur bo'lim negizida 5 shtat birligidan iborat boshqarma tashkil etildi |
| 5 | PQ-5177-son Qarori 4-band.Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ularni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi | doimiy | O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i hamda boshqarma boshlig'i o'rinbosari lavozimlariga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi ishtirokida ARGOS platformasi orqali tanlov o'tkazilib, munosib nomzodlar tanlab olindi |
| 6 | PQ-5177-son Qarori 9 a)-band. 2021-yil 1-avgustdan boshlab davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida davlat xaridlari sohasida o'tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini majburiy tarzda ochiq e'lon qilish amaliyoti joriy etilsin | 2021-yil avgust | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-fevraldagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 55-son qaroriga asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va rekonstruksiya qilish ob'ektlarida ishlarni bajarish uchun pudrat tashkilotlarini aniqlash bo'yicha savdolar «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda |